

QADIMGI DEVORIY SURATLAR TARIXI TAHLILI



Xushmurodova nargiza ravshan qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Amaliy san’at asarlarini ta’mirlash” ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Devoriy rasmlar - bezak san’ati sohasiga tegishli bo‘lib, binolarning devori, shifti, ustunlari suvog‘i ustidan yoki ularga mustahkamlangan mato, qog‘oz va boshqalarga bo‘yoqlar yordamida ishlanadigan tasvirlar yoki naqshlar hisoblanadi. Qadimdan insonlar devoriy suratlar orqali o‘zlarining ilk madaniy va badiiy qarashlarini ifoda etishgan. Devoriy rasmlarni o‘rganish va tahlil qilish orqali usha davr kishilarining dunyoqarashlari, hayoti, diniy e’tiqodlari va kundalik faoliyati to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni bilishimiz mumkin bo‘ladi. Mazkur maqolada qadimgi devoriy suratlarning kelib chiqishi, tarixi, ularning jamiyatdagi roli hamda eng mashhur namunalarining ilmiy tahlili bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarimiz natijalarini keltirganmiz.

Kalit so‘zlar: devoriy, surat, tarix, dunyoqarash, namunalar, g‘or, ov, hayvonlar, estetik, diniy, qadimgi, yozuv, Lasko, Altamira, piramida, ibodatxona, Pompeya, Misr, arxeologiya, san’atshunoslik, antropologiya.

Аннотация: Фрески относятся к области декоративного искусства и представляют собой изображения или узоры, созданные с помощью красок на стенах, потолках, колоннах зданий или прикрепленные к ним с помощью красок. С древних времен люди выражали свои первые культурные и художественные взгляды через фрески. Изучая и анализируя настенные росписи, мы сможем узнать необходимую информацию о мировоззрении, быте, религиозных верованиях и повседневной деятельности людей того времени. В этой статье мы представили результаты наших научных исследований о происхождении, истории, роли древних настенных росписей, их роли в обществе, а также научный анализ наиболее известных примеров.

Ключевые слова: фреска, фотография, история, мировоззрение, образцы, пещера, охота, животные, эстетика, религиозная, древняя, письменность, Ласко, Альтамира, пирамида, храм, Помпеи, Египет, археология, искусствоведение, антропология.

Abstract: Murals belong to the field of decorative arts, and are images or patterns created using paints on fabric, paper, etc., on the walls, ceilings, columns of buildings or attached to them. Since ancient times, people have expressed their first cultural and artistic views through murals. By studying and analyzing the wall paintings, we will be able to learn the necessary information about the world views, life, religious beliefs and daily activities of the people of that time. In this article, we have presented the results of our scientific research on the origin, history, role of ancient mural paintings, their role in society, and the scientific analysis of the most famous examples.

Keywords: mural, picture, history, outlook, samples, cave, hunting, animals, aesthetic, religious, ancient, writing, Lascaux, Altamira, pyramid, temple, Pompeii, Egypt, archeology, art history, anthropology.

Kirish. Qadimgi devoriy suratlar insoniyatning ilk madaniy va badiiy tafakkuri mahsuli hisoblanadi. Ular orqali insoniyatning dastlabki dunyoqarashi, hayoti, diniy e’tiqodlari va kundalik faoliyati haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Ushbu maqolada qadimgi devoriy suratlarning kelib chiqishi, tarixi, ularning jamiyatdagi roli hamda eng mashhur namunalarining ilmiy tahlili keltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jean Clottes – “World Rock Art” (Dunyo tosh san’ati). Ushbu asarda butun dunyodagi qadimgi devoriy (petroglif va piktograf) san’at namunalariga keng yondashiladi, ayniqsa Fransiyadagi Lasco va Chauvet g’or suratlari tahlil qilinadi. Asar devoriy san’atning antropologik va estetik yondashuvda qanday izohlanishini o’rganishga yordam beradi. David S. Whitley – “Introduction to Rock Art Research”. Ushbu asarda devoriy san’atni o’rganish metodologiyasi, sanalash usullari (radiokarbon, stratigrafik) va uni arxeologik kontekstda tahlil qilish yo’llari bayon etiladi. Asar o‘quvchilarni devoriy suratlarni ilmiy asosda o’rganish uslublari bilan tanishtiradi.

X.To’xtaboyevning “O’zbek san’ati tarixi” va R.Alimovning “Qadimgi O’zbekiston madaniyati” asarlarida O’zbekiston hududidagi qadimgi san’at yodgorliklari, shuningdek, Sarmishsoy, Zarautsov, Ko’hitang kabi joylardagi petrogliflar haqida ma’lumot beradi. Asarlar mahalliy devoriy suratlarning diniy, maishiy va tarixiy kontekstdagi talqinini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qadimgi devoriy suratlar tarixiga nazar tashlasak, ularning ilk namunalariga paleolit davriga oid g’or rasmlarida duch kelamiz. Bu suratlar odatda ov sahnalar, hayvonlar tasviri va marosimlar bilan bog’liq. Fransiyadagi Lasko g’ori, Ispaniyadagi Altamira g’ori va boshqa joylardagi tasvirlar bu san’atning eng qadimgi namunalari sifatida qaraladi.

Devoriy suratlar nafaqat estetik ahamiyatga, balki diniy, ijtimoiy va siyosiy axborotni uzatish vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Misol uchun, qadimgi Misrda devoriy suratlar fir’avnarning hayoti, tangrilarning tasviri va har xil marosimlarni ifodalagan. Bu suratlar ko’pincha yozuvlar bilan birgalikda berilgan bo’lib, o’zida o’sha davrga oid tarixiy voqealarni hamda mafkurani aks ettirgan.

Tahlil va natijalar. Mashhur devoriy suratlar: misollar va tahlillar. Eng qadimgi devoriy surat namunalari so’nggi paleolit davrida yuzaga kelgan, ular g’or va qoyalarga ishlangan. Qadimgi va o’rta asrlarda devoriy suratlarning nodir namunalari yaratildi. VII-VIII-asrlarda Markaziy Osiyoning Varaxsha, Panjakent va boshqa hududlaridagi ibodatxonalar, saroylar tasvirlar bilan bezatilgan bo’lsa, o’rta asrlarda musulmon mamlakatlarida naqshli bezaklar keng tarqalgan. Qadimgi Misr devoriy suratlari, Xitoyning Dunxuan va Hindistonning Ajanta hududlarida g’or va qoyalarga ishlangan tasvirlar ajralib turgan. Yevropada esa ma’lum diniy tartiblarga moyil bo’lgan devoriy surat namunalari Vizantiya, Gruziya, Bolqon, qadimgi Rusda rassomlik san’atining muhim turiga aylandi. Uyg’onish davrida Italiyada (Jotto, Mazachcho, Leonardo da Vinci, Rafael, Mikelanjelo va boshqalar) chuqur realistik devoriy surat asarlari yaratildi. Roman uslubi, gotika, barokko uslublaridagi binolarda sof bezak xususiyatiga ega bo’lgan devoriy surat namunalari yuzaga kelgan.

O’zbekistonda devoriy suratlar qadimdan ma’lum bo’lgan. Surxondaryo viloyati Xolchayon hududida miloddan avvalgi I-asr, Tuproqqa’da III-asr, Bolaliktepa qasrida esa V-VI-asrlar, Buxoro yaqnidagi Varaxsha saroylarida VII-asr va Afrosiyobda VII-asrlardagi devoriy suratlar namunalari badiiy jihatdan qimmatli hisoblanadi. Syujetli suratlarda o’sha davrdagi hayat lavhalar, hayvon tasvirlari, bazm, safar, qabul marosimlari, shohlarning qahramonliklari aks ettirilgan. Eng mashhur devoriy surat namunalariga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin.

1. Lasko g’ori (Fransiya): Paleolit davriga oid bu suratlarda turli hayvonlar (bug’ular, otlar, ho’kizlar) tasvirlangan bo’lib, ularning harakati va dinamizmi katta mahorat bilan berilgan.

2. Altamira g’ori (Ispaniya): Bu suratlar ham paleolit davriga mansub bo’lib, ularda bizonlar va qo’ylar tasvirlangan.

3. Misr piramidalari va ibodatxonalar: Bu yerda devoriy suratlar marosimlar, fir’avnlar hayoti va diniy e’tiqodlar haqida ma’lumot beradi.

4. Pompeya (Italiya): Rim davriga oid bu suratlar kundalik hayat, tabiat va mifologik sahnalarini o’z ichiga oladi.

Devoriy suratlarni o’rganishda arxeologiya, san’atshunoslik, tarix, antropologiya kabi fanlar muhim rol o’ynaydi. Radiokarbon usuli orqali ularning yoshi aniqlanadi, tasviriy san’at yondashuvlari yordamida esa ularning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu suratlar orqali qadimgi jamiyatlar tafakkuri, ularning tasviriy ifoda vositalari va madaniy qadriyatlarini yuzaga chiqadi.

Xulosa. Qadimgi devoriy suratlar insoniyatning ilk badiiy merosi sifatida nafaqat san'at, balki tarixiy va madaniy manba hamdir. Ular orqali biz qadimgi insonlarning ruhiy olami, ijtimoiy hayoti va dunyoqarashi haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar yordamida bu suratlarni o‘rganish, qadimgi sivilizatsiyalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyot ro`yxati:

1. Lewis-Williams, D. (2002). *The Mind in the Cave: Consciousness and the Origins of Art*. Thames & Hudson.
2. Bahn, P. G. (2012). *Prehistoric Rock Art: Polemics and Progress*. Cambridge University Press.
3. Breuil, H. (1952). *Four Hundred Centuries of Cave Art*. Centre d’Etudes et de Documentation Prehistoriques.
4. Kleiner, F. S. (2016). *Gardner’s Art through the Ages: The Western Perspective*. Cengage Learning.
5. Internet manbalari: www.britannica.com, www.nationalgeographic.com, <https://uz.wikipedia.org> .